

MUSTAQILLIK YILLARIDA DAVLAT BOSHQARUVI TIZIMIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLAR

Olimova Shaxzoda Behzod Qizi

Xo'jamova Madinabonu Naimjon Qizi

SHDPI 1- BOSQICH TALABALARI

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mustaqillik yillarida amalga oshirilgan o'zgarishlar va islohotlar haqida fikrlar ilgari suriladi.

**Kalit so'zlar:** islohot, ikki tomonlama hamkorlik, deklaratsiya, o'z-o'zini boshqarish, mudofaa vazirligi.

Kirish : Mamlakatimiz 33-yil ilgari mustaqillikka qadam qo'ydi. Toki shungacha bo'lgan davrga nazar tashlar ekanmiz. Mustaqillikka erishish xalqimiz uchun oson bo'lgani yo'q. bu yo'lda ne-ne jadidlarimiz nohaqlarcha otib tashlandi, surgun qilindi, qamab qo'yildi. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov say harakatlari bilan mustaqillikka erishganimizdan so'ng, ko'plab o'zgarishlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

O'zbekistonning MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorligi ham shular jumlasidandir. O'zbekiston Respublikasi o'z tashqi siyosatida MDH mamlakatlari bilan ikki tomonlama hamkorlikni yo'lga qo'yish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berib kelmoqda. Ikki tomonlama hamkorlik deyilganda ikki davlat o'rtasidagi ya'ni O'zbekistonning boshqa bir mamlakat bilan davlatlararo munosabtlarini yo'lga qo'yish va chuqurlashtirish jarayoni tushuniladi.

Hamdo'stlik davlatlari orasida eng qudratli, ulkan ishlab chiqarish imkoniyatiga bo'lmish Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston tashqi siyosatining diqqat markazida bo'ldi. Shuning uchun ham Prezident Islom Karimov „ Rossiya Federatsiyasi bilan teng huquqli va o'zaro manfaatli aloqalar o'rnatish O'zbekiston uchun juda muhimdir. Biz bu maqsadimizga erishish uchun bor kuchlarimiz va imkoniytlarimizni ayamaymiz”-, degan edi.

1991-yil 26-oktabrda O'zbekiston Prezidenti I. Karimov rasmiy davlat safari bilan Moskvaga bordi. Uchrashuvda I. Karimov va B. Yelsin ikki davlat o'rtasida muxtor va vakolatxonalar ochish, bir-birlarining suverenitetini va hududiy yaxlitligini hurmat qilish, tashqi siyosatda va iqtisodiy masalalarda hamkorlik qilishga kelishib oldilar. Safar chog'ida 1992-yil uchun savdo-iqtisodiy hamkorliklari bo'yicha bitim imzolandi.

Ta'lim sohasidagi dastlabki islohotlar. Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq fan va texnikaga munosabat o'zgardi., xalq ta'limi tizimini jadal isloh qilishga kirishildi. 1992-yilda mustaqil O'zbekiston Respublikasining „ Ta'lim to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun, birinchidan, O'zbekiston ta'lim tizimida ilgari erishilgan muvaffaqiyatlarini saqlab qolishga, ikkinchidan esa, eski tuzum sarqitlarini ko'rsatib berishga xizmat qildi.

Mahalliy o'z-o'zini boshqarish. O'zbekiston taraqqiyotining bosh yo'li jamiyatni demokratlashtirish, adolatli, ochiq fuqarolik jamiyati qurishdan iboratdir. Demokratik jamiyat qurish bobida hamma davlat uchun tayyor qolip va andozalar yo'q. Islom Karimov dunyoda bir-biriga o'xshagan ikkita inson bo'lmaganidek, bir-biriga aynan o'xshagan ikki davlat ham yo'q deganida haqlidir. To'g'ri, demokratik jamiyatning xalqaro miqyosda e'tirof etilgan tamoyillari bor: insonning o'z xohish-irodasini erkin bildirishi va uni amalga oshirishi; ozchilikning ko'pchilikka bo'ysunishi; davlat va jamiyat boshqaruvida qonun ustuvorligi; davlat hokimiyat organlarining saylab qo'yilishi va ularning saylovchilar oldida hisob berishi va boshqalar. O'zbekiston demokratik jamiyat qurishda ana shu tamoyillarga, umumjahon sivilizatsiyasiga asoslandi. Shuningdek, xalqimizning necha ming yillik

tarixiy va ma'naviy taraqqiyotining hosilini, milliy davlatchiligimiz negizlarini, buyuk madaniyatimiz tomirlarini, ma'naviy merosimiz ildizlarini, milliy xususiyatlarimiz va boy an'alarimizni yangi jamiyat qurilishiga tatbiq etish yo'lidan bormoqda. Demokratik jarayonning individualizm falsafasiga tayanuvchi, inqilobiy o'zgarishlarga moyil g'arb namunasi O'zbekistonga unchalik to'g'ri kelavermaydi. Sharq falsafasi va islom dini ta'limotlarini aks ettiruvchi hamjihatlik g'oyasi va jamoatchilik fikrining ustuvorligiga tayanuvchi sharqona demokratik qadriyatlar O'zbekiston uchun asos qilib olindi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi — O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1991-yil 31-avgustdagi „O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida“gi Bayonotida „Davlat mustaqilligini, hududiy yaxlitligini, fuqarolarning Konstitutsiyaviy huquqi va erkinligini himoya qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1991-yil 6-sentyabrdagi farmoniga asosan, Mudofaa ishlari vazirligi tashkil etildi, uning shtat tizimi va vakolatlari belgilandi. 1991-yil 10-sentyabrdagi farmonga binoan, Mudofaa Vaziri ayni vaqtda Milliy gvardiya qo'mondoni etib tayinlandi. O'zbekiston Respublikasida Mudofaa ishlari vazirligi va Milliy gvardiya tuzildi.

Sud hokimiyatining shakllanishida 1993-yil 6-mayda qabul qilingan „O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida“gi, 1993-yil 2-sentabrda qabul qilingan „Sudlar to'grisida“gi qonunlar muhim rol o'ynadi. Sud hokimiyatini mustahkam lash, uning mustaqilligini ta'minlash masalasi doimiy ravishda davlat

boshlig'ining e'tiborida bo'ldi. Deyarli barcha asosiy ma'ruzalarida davlat boshlig'i bu masala xususida to'xtalib o'tdi.

**Xulosa :** Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida qator islohotlar olib borildi va bular vatanimiz ravnaqiga xissa qo'shish uchun zamin yaratdi. O'z-o'zini boshqarish organlari, mudofaa xavfsizligi borasidagi ishlar shular jumlasidandir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sattorov, U. "O'zbekiston tarixi: Mustaqillik va yangilanish davri."
2. Qosimov, M. "O'zbekiston ta'lim tizimi: tarixiy asoslar va zamonaviy o'zgarishlar."
3. Abdukarimov, F. "O'zbekistonning sud tizimi: Shakllanishi va rivoji."
4. Qodirov, R. "O'zbekistonning demokratik taraqqiyoti: Yangi jamiyat qurish."
5. [https://uz.wikibooks.org/wiki/O%60zbekiston\\_tarixi\\_darsligi](https://uz.wikibooks.org/wiki/O%60zbekiston_tarixi_darsligi)
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston\\_Respublikasi\\_Mudofaa\\_vazirligi](https://uz.wikipedia.org/wiki/O%CA%BBzbekiston_Respublikasi_Mudofaa_vazirligi)
7. Бобожонов, Бехруз Баходир ўғли. ШАҲРИСАБЗНИНГ ТАРИХИЙ БОЗОРЛАРИ ВА САВДО-ИҚТИСОДИЙ МУНОСАБАТЛАРИ. 1344-1351